

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 173 (1772), 2026-yil 25-avgust, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: AZALIY QARDOSHLIK, ISHONCHLI HAMKORLIK VA ABADIY DO‘STLIKNING TARIXIY HAQIQATLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev 23-24-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi.

Buxoro — Buyuk ipak yo‘lidagi muhim halqa. Shu bois, sharif shaharda iqtisodiy o‘shish bilan birga ilm-fanda ham katta natijalarga erishilgan. Dunyoning to‘rt tomonidan kelgan karvonlar sabab madaniyatlar birlashib, ezgu amallar olamga taralgan. Xususan, Buxorodan yo‘lga chiqqan karvonlar Ozarbayjonga, undan Yevropagacha yo‘l yurgan. Tarixiy shaharda zarb etilgan tangalar Ozarbayjonda topilgan. Qolaversa, Bokudagi Icherisheherda XV asrga oid mashhur “Buxoro karvonsaroyi” bor. Shu bois, xalqimiz Nizomiy Ganjaviy asarlarini tanigan, sevib o‘qib, undan ilhomlangan. Iqtisodiy aloqalar ikki xalqning teng taraqqiy etishiga xizmat qilgan. Bugun ushbu tarixiy haqiqatlar yanada mustahkamlanib, yangi O‘zbekistondagi islohotlar shiddatiga mos tarzda qayta jonlanmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ishonchli ittifoqchilik, strategik sheriklik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilib, mustahkamlanib bormoqda. Tashrifning ilk kunida Toshkentda erishilgan kelishuvlar, xususan, Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimizda davlat tashrifi bilan bo‘lib turgan Ozarbayjon Respublikasi

Prezidenti Ilhom Aliyev 24-avgust kuni rafiqasi bilan birga Buxoro shahriga keldi. Oliy martabali mehmonlarni Buxoro xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda rafiqasi kutib oldi. Tantanali marosimda milliy kuy-qo‘shiq va raqslar ijro etildi.

Mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev hamda Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev rafiqalari hamrohligida Buxoroning tarixiy obidalarini ziyorat qildilar.

Dastlabki manzil Somoniylar maqbarasi bo‘ldi. Ziyorat chog‘ida Qur‘on oyatlari tilovat qilinib, o‘tganlarga rahmat, yurtimizga tinchlik va farovonlik tilab, fотиha o‘qildi.

Somoniylar maqbarasining poydevori yuqori sifatli pishgan g‘ishtdan terilgan. Xuddi barqaror iqtisodiy quvvat kabi. Uning shakli kitoblar taxlamini eslatadi. Bunda taraqqiyot poydevori bilim bilan mustahkam ekaniga ishora bor. Ha, bir zamonlar Buxoro va Boku orasida qatnagan karvonlar faqat moddiy boylik emas, kitob, madaniyat va ma‘rifat ham tashigan. Bugun ham ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar ana shunday keng ko‘lamda namoyon bo‘lmoqda. Jumladan,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining yangi kampusi ochildi. Yangi Toshkentda “Ozarbayjon” bog‘ini barpo etish ishlari boshlandi. Yirik iqtisodiy kelishuvlar bilan bir qatorda madaniy aloqalar ham mustahkamlanib bormoqda. Sodda qilib aytganda, mamlakatimizda Uchinchi Uyg‘onish davrining poydevori barqaror iqtisodiy asoslar va ilm-ma‘rifat uyg‘unligida yaratilmoqda. Bu Somoniylar maqbarasining poydevoridagi ramziy ishorani eslatadi.

IX asr oxiri — X asr boshlariga oid ushbu maqbara Markaziy Osiyodagi pishiq g‘ishtdan bunyod etilgan eng qadimiy inshootlardan. U Somoniylar davlati asoschisi va birinchi hukmdori Ismoil Somoniy tomonidan sulolaviy maqbara sifatida bunyod etilgan.

Ushbu me‘moriy obida yurtimiz tarixiga oid muayyan davrlarni o‘zida mujassam qilgan. Xususan, maqbaradagi o‘ziga xos me‘moriy yechim islom va undan avvalgi davr an‘analarga xos naqshlarni aks ettiradi. E‘tiborlisi, quyosh nurining tushishiga qarab, maqbara naqshlari turlicha jilolanadi. Binoning kub va gumbaz shaklidagi kompozitsiyasi yer va osmon uyg‘unligining ramziy ifodasidir.

Devorlar yuqori sifatli g‘ishtdan, qariyb ikki metr qalinlikda terilgani uchun ham mazkur noyob yodgorlik hozirgacha yaxshi saqlangan. Ushbu obidaning tarixi, me‘moriy xususiyatlari haqida ma‘lumot berildi.

Tashrifning navbatdagi manzillarida oliy martabali mehmonlar Ark qo‘rg‘oni, Poyi Kalon va Labi Hovuz majmualari, Ko‘kaldosh madrasasini ziyorat qildilar.

Ark qo‘rg‘oni — qadimiy qal‘a. U qariyb 1500 yil davomida hukmdorlar qarorgohi sifatida xizmat qilgan. Hozirgi ko‘rinishi asosan XVI asrda shakllangan. Ilgari u saroylar, ma‘muriy binolar, qurolxonani qamrab olgan “shahar ichidagi shahar” bo‘lgan.

Poyi Kalon majmuasi Buxoroning eng ulug‘vor va mashhur me‘moriy ansambllaridan. Uning tarkibidagi 45,6 metrli minor 1514-yilda barpo etilgan. Shuningdek, ansamblda 12 ming kishi sig‘adigan Kalon masjidi, islom olamining eng nufuzli ta‘lim muassasalaridan biri bo‘lgan Mir Arab madrasasi ham bor. Butun ansamb bo‘ylab kezar ekansiz, shonli tarix va yorug‘ kelajak chorrahasidagi o‘ziga xos ulug‘vorlikni his etasiz.

Bu tuyg‘u yana bir qadim manzil — Labi Hovuz sari yetaklaydi. Ulug‘vor va

qadimiy shahar ko‘chalari doim gavjum. Unda dunyoning turli mintaqalaridan kelgan sayyohlarni uchratish mumkin. Bu yerdagi ustaxonalarda ishlayotgan hunarmandlar esa o‘tmish va bugun o‘rtasidagi ajralmas halqa kabi elimizga xizmat qilmoqda. Yurtimizga kelgan sayyohlarga xalqimizning madaniy merosini taqdim etmoqda.

Tashrif chog‘ida namoyish etilgan xalq hunarmandchiligi namunalari hamda tarixiy obidalariga tushirilgan badiiy bezaklar, ularning xususiyatlari haqidagi faktlar oliy martabali mehmonlarda qiziqish uyg‘otdi.

Labi Hovuz ansambli Buxoroda saqlanib qolgan o‘rta asrlarga oid sanoqli maydonlardan. Uning markazida qadimiy hovuz joylashgan. Majmua tarkibida Ko‘kaldosh, Nodir devonbegi madrasalari va xonaqoh kabi noyob obidalar bor. Oliy martabali mehmonlarga obidalarning tarixi, me‘moriy xususiyatlari haqida so‘zlab berildi.

Hovuz bo‘yidagi hordiq chiqarish o‘rinlari, ko‘p yillik daraxtlar, qadimiy binolarga xos sokin muhit majmuaning qadimiy ruhini his etishga ko‘mak beradi. Eposlar, “Xamsa” dostonlarida tarannum etilgan qahramonlar nafasini tuyasiz. Ayni

damda bugungi davr qahramonlari borligini his etish ko‘ngilda iftixor uyg‘otadi.

Ta’kidlanganidek, Buxoro — Buyuk ipak yo‘lining muhim halqasi. U uzoq vaqtlar mobaynida islom sivilizatsiyasining eng yirik ilm-fan, ta’lim va savdo markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Oliy martabali mehmonlarga Buxoroi sharifning ko‘p asrlik tarixi haqida so‘zlab berildi.

Shuningdek, oliy martabali mehmonlarga viloyatning bugungi iqtisodiy o‘shish nuqtalari, jumladan, raqamlashtirish, yengil va elektrotexnika sanoati kabi sohalaridagi salohiyati haqida ma‘lumot berildi.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Buxorodagi Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi.

Buxoro xalqaro aeroportida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va rafiqasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi hamrohligida kuzatib qo‘ydi. Shuning bilan Prezidentimizning Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG‘ISTON PREZIDENTINI QURULTOYGA SAYLOV MUVAFFAQIYATLI O‘TGANI BILAN TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-avgust kuni Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Subhat avvalida davlatimiz rahbari Qozog‘iston Prezidentini mamlakat tarixida ilk marotaba bir palatali Qurultoyga saylov muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabrikhladi.

Yangi Qurultoy Qozog‘istonda izchil islohotlarni yanada ilgari surishda muhim omil bo‘lishi, keng ko‘lamli o‘zgarishlarni qonunchilik jihatidan samarali ta‘minlashi va

mamlakatning barqaror rivojlanishiga yangi sur‘at bag‘ishlashiga ishonch bildirildi.

Subhat davomida davlat rahbarlari O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O‘zaro savdo hajmini yanada oshirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish,

transport-logistika aloqalarini rivojlantirish hamda ikki mamlakat hududlari o‘rtasida ishbilamnonlik aloqalarini faollashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Yetakchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb mavzular yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR YANGI BOSQICHDA

Xorijiy ekspertlar oliy darajadagi

O‘zbekiston – Ozarbayjon sammiti yakunlari haqida



Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning 2026-yil 23-24-avgust kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari rivojida muhim voqea bo‘ldi.

Bu strategik sheriklik va ittifoqchilikning yuqori darajasini ifodalab, ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirishga yangi sur‘at bag‘ishladi.

Xorijiy ekspertlar oliy darajadagi O‘zbekiston — Ozarbayjon sammitining tarixiy xususiyatini alohida e‘tirof etdi.

Imzolangan Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma va erishilgan kelishuvlar ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish, qo‘shma loyihalarini kengaytirish va ikki qardosh xalqni yanada yaqinlashtirishga yangi sur‘at bag‘ishlashiga ishonch bildirildi.

► **Davomi 2-betda**

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!



MUSTAQILLIK HUQUQ VA ERKINLIKLAR RO‘YOBI, QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT TANTANASIDIR

Xalqimiz uchun tengsiz ne‘mat bo‘lgan Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida yanada ulkan maqsadlar bilan qarshi olmoqdami.

Albatta, bunday shukhli kunlar bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘limizga nazar tashlash, erishilgan natijalarni xolis baholash va zamon chaqiriqlariga mos tarzda yangi vazifalarni belgilab olish imkonini hamdri.

Shu nuqtayi nazardan, zimmasiga qonun ustuvorligi va adolat tantanasini ta‘minlash, inson huquqlari, davlat hamda jamiyat manfaatlarini ishonchli himoyalashga hissa qo‘shishdek sharafli vazifa yuklatilgan prokuratura tizimining bugungi faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish muhim ahamiyatga ega.

Yangilangan Konstitutsiyamizdagi inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, davlat organlari bilan munosabatlarda yuzaga keladigan noaniqliklarning inson foydasiga talqin qilinishi kabi muhim qoidalar prokuratura uchun ham o‘ziga xos yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bois, aholi bilan bevosita muloqot qilish, sayyor qabullar o‘tkazish, muammolarni joyiga chiqqan holda o‘rganish, eng muhimi, fuqaroning buzilgan huquqini amalda tiklashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

► **Davomi 2-betda**

AMU SOHILIDA ISTIQLOL SHODIYONALARI



UZUM SAYLI – QADRIYATLAR TARANNUMI VA QUT-BARAKA BAYRAMI

4

6

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

MUSTAQILLIK HUQUQ VA ERKINLIKLAR RO‘YOBI,
QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT TANTANASIDIR

“ Qonun ustuvorligini ta‘minlash, jinoyatlarni sifatli tergov qilish va fuqarolar huquqlarini ishonchli himoyalash, eng avvalo, malakali kadrlarga bog‘liq. Shu ma‘noda, mamlakatimizda turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yagona yondashuv asosida tergov kadrlarini tayyorlashning yangi tizimi yo‘lga qo‘yilgani muhim voqeadir.

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi bir yarim yilda prokuratura organlari tomonidan aholining 335 mingdan ziyod murojaati bevosita hal etildi, qabullarda bo‘lgan 197 mingdan ortiq fuqaro duch kelgan muammolar yechimiga ko‘maklashildi.

Virtual va Xalq qabulxonalaridan kelib tushgan 189 mingga murojaatdagi dolzarb masalalar hal etildi. Qonun buzilishlariga huquqiy baho berish bilan birga fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan amaliy choralar ko‘rildi.

Jumladan, noqonuniy hujjatlarga 660 ta protest keltirildi, 55 milliard so‘m zararni undirish haqida sudlarga 1700 dan ortiq ariza kiritildi. Qonun buzilishlariga yo‘l qo‘ygan 557 shaxs intizomiy, ma‘muriy va moddiy javobgarlikka tortildi, qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 397 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Bu raqamlar, avvalo, bir haqiqatni ko‘rsatadi: bugun prokuratura faoliyatida asosiy e‘tibor qonunbuzarlikni qayd etishdan ko‘ra, uning oqibatini bartaraf etish, inson huquqini tiklash va kelgusida bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilmoqda.

Qonun ustuvorligi jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini qamrab olgandagina o‘zining haqiqiy mazmuniga ega bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, kambag‘allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda.

Tegishli ro‘yxatlarga noqonuniy kiritilgan oilalarni ulardan chiqarish natijasida 26,7 milliard so‘m byudjet mablag‘i ortiqcha va asossiz sarflanishining oldi olindi, aksincha, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan, ammo hisobga olinmagan 22 ming 600 dan ziyod oila ijtimoiy ro‘yxatlarga kiritildi.

Yoshlar bilan ishlashda ham aniq manzilli yondashuv yo‘lga qo‘yildi. “Og‘ir toifa”ga kiritilgan qariyb 2900 yosh prokuratura organlarining 600 ga yaqin rahbar xodimiga biriktirildi. Natijada 6260 nafardan ziyod yoshning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolari hal etildi.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida 44 mingga yaqin ayolga amaliy yordam ko‘rsatildi. Bu ishlar ularning bandligini ta‘minlash, moddiy va tibbiy yordam ko‘rsatish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni qamrab oldi.

Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish doimiy e‘tiborda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida voyaga yetmagan qariyb 160 ming fuqaroning huquqlari tiklandi.

Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekoturizmni rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat faoliyati yanada kuchaytirildi.

Bunda tabiiy ekologik muhitni saqlash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlarining o‘zbohichalik bilan egallab olinishi va noqonuniy qurilmalar qurilishining oldini olishga alohida e‘tibor qaratildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bahor va kuz mavsumlarida jami 347 million tup ko‘chat ekilishi ta‘minlanib, “Yashilmakon.eco” elektron platformasiga kiritildi.

Joylarda har bir mahalla kesimida ish tashkil etilib, mahallalar va aholi tomorqalari atrofida 25 million tupdan ortiq ko‘chat ekilishi tashkillashtirildi.

Bevosita prokuratura xodimlari tomonidan 376 gektar yerga 235 ming tup ko‘chat ekildi hamda “prokuror bog‘lari” soni 145 taga yetkazildi.

Madaniy meros va turizm sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish borasida tizimli ishlar qilindi.

Ko‘rilgan choralar natijasida madaniy meros obyektlarining 3628 tasiga muhofaza belgilari o‘rnatilishi, 1242 ta yodgorlikning muhofaza chegarasi belgilanishi, 3296 tasining kadastr hujjatlari shakllantirilishi hamda 3586 ta obyektaga jamoatchi inspektor biriktirilishi ta‘minlandi.

Bugun tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki yangi ish o‘rinlari, oilaviy daromad va hududlar taraqqiyotining muhim omilidir. Shuning uchun tadbirkorlik qonuniy faoliyatiga asossiz aralashish, ortiqcha ma‘muriy to‘siqlar yaratish yoki mulkiy huquqlarini cheklashga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.



Shu maqsadda prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlar, jumladan, xorijiy investorlarning qariyb 45 ming nafariga “Tez yordam” tamoyili asosida amaliy ko‘mak ko‘rsatildi. Buning natijasi o‘laroq, 15 mingdan ziyod yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, salkam 17,5 mingga tadbirkorlik subyekti faoliyati tiklandi va 44 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, “Tashabbusli budjet” va boshqa dasturlar ijrosini ta‘minlash ta‘minlash borasida tizimli ishlar qilindi.

Barcha dasturlardagi 9700 dan ziyod obyektda qurilish-ta‘mirlash ishlarini yakunlab, foydalanishga topshirilishi ta‘minlandi.

Qariyb 11 ming 700 ta obyektni loyihalashda asossiz hisoblangan 5,5 trillion so‘mlik xarajat maqbullashtirilib, ortiqcha mablag‘ sarflanishining oldi olindi.

48,4 milliard so‘mlik sifatsiz ishlar joyida bartaraf etildi, qo‘shib yozishlarga chek qo‘yish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida 52,6 milliard so‘m tejab qolindi.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, talon-taraj qilinib olinishi oldini olish borasida ham tizimli ishlendi.

Jumladan, energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini fosh etish samaradorligi past hamda yo‘qotishlar yuqori bo‘lgan “qizil” hududlarda kuchaytirilgan reydtadbirlari tashkil etildi.



Budget tushumlari ijrosini ta‘minlash, yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli usul va kanallarini aniqlash, ularga barham berish, sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish orqali biznesni soyadan chiqarishga qaratilgan tadbirlar izchil davom ettirildi.

Jumladan, bozorlar va avtoturargohlardagi yashirin aylanmalarga barham berish maqsadida “Raqamli bozor” va “Parking Management System” dasturlari asosida

Shuningdek, huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan 125,5 ming shaxs intizomiy va ma‘muriy javobgarlikka tortildi, qo‘pol qonun buzilishi holatlari bo‘yicha 18,5 mingga yaqin jinoyat ishi qo‘zg‘atildi. Prokuror tekshirishlari va dastlabki tergov davomida 4,7 trillion so‘m zarar undirilishi ta‘minlandi.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Manzilli profilaktik tadbirlar natijasida kriminogen vaziyati og‘ir mahallalardagi 12 ming 200 dan ortiq fuqaro ishga joylashtirildi, qariyb 10 ming nafari kasbga o‘qitildi va tegishli yo‘nalishlarga jalb etildi.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida hududlarda zamonaviy videokuzatuv tizimlari, yuz va avtomobil raqamlarini tanib oluvchi kameralar, domofonlar hamda “xavfsiz ko‘cha”, “xavfsiz uy” kabi loyihalar keng joriy etildi.

Bu boradagi tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, 58 ming 565 ta kiberjinoyat aniqlanib, barchasi hisobga qo‘yilishi ta‘minlandi.

MUSTAQILLIGIMIZNING 35 YILLIGI
ARAFASIDA BOSIB O‘TGAN YO‘LIMIZGA NAZAR
TASHLAR EKANMIZ, BIR HAQIQAT TOBORA
YAQQOL NAMOYON BO‘LADI: MAMLAKAT
TARAQQIYOTINING ENG MUHIM MEZONI
IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR YOKI RAQAMLAR
EMAS, AVVALO, INSONNING HAYOT SIFATI,
HUQUQ VA ERKINLIKLARINING QAY DARAJADA
TA‘MINLANGANIDIR.

raqamlashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada 347 ta bozor hamda 209 ta avtoturargoh faoliyati to‘liq raqamlashtirilib, ulardagi o‘rtacha oylik tushum miqdori 134 milliard so‘mdan 164 milliard so‘mga yoki 122 foiz ortdi.

“20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida 20 mingdan ortiq ishchi-xodimning mehnat faoliyati qonuniylashtirilib, ularga 44,5 milliard so‘mlik ish haqlari hisoblanishi natijasida yillik 128 milliard so‘mlik soliq bazasi yaratildi.

Umuman, qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida ko‘rilgan barcha choralar natijasida 883 mingdan ortiq fuqaroning buzilgan huquqi tiklandi, qonunga zid qariyb 81,5 mingga hujjatga protest, 51 ming 470 ta taqdimnoma, sudlarga 3 trillion so‘m zararni undirish haqida 30 mingtaga yaqin ariza kiritildi.

Shuningdek, 23 mingga yaqin fuqaroning buzilgan huquqlari tiklanishiga, yetkazilgan 219 milliard so‘m moddiy zarar qoplanishiga erishildi. Bularning barchasi bir maqsadga — insonning tinch va xavfsiz hayotini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Sud-huquq tizimini, shu jumladan, prokuratura organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlovni samarali ta‘minlash borasida ko‘plab ishlar qilindi.

Jumladan, prokuratura organlari tomonidan 2025-yil va joriy yilning 6 oyida qariyb 224 mingga jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma‘muriy ishning sudlarda ko‘rilishida prokuror ishtiroki ta‘minlandi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib borayotgan bir paytda prokuratura tizimi ham zamonaviy boshqaruv talablariga mos ravishda yangilanmoqda.

“Raqamli prokuratura — 2030” strategiyasi bu borada muhim qadam bo‘ldi.

Hozirga qadar prokuratura organlari faoliyatiga 58 ta axborot tizimi joriy qilinib, davlat organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalar soni 250 tadan oshdi.

Ushbu tizimlar ish yurituvchi, hujjat almashinuvi, murojaatlarni ko‘rib chiqish, prokuror nazorati, tergovga qadar tekshiruv, sudlar bilan elektron hamkorlik va idoralararo axborot almashinuvi raqamlashtirish imkonini bermoqda.

Kelgusida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda murojaatlarni tahlil qilish, hujjatlarni tasniflash, tergov va prokuror nazorati jarayonlarini avtomatlashtirish, ma‘lumotlarni qayta ishlash hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.

Bu esa prokuratura faoliyatining tezkorligi, ochiqchiligi va samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va fuqarolarning huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Korrupsiya qonun ustuvorligi va adolatga, eng muhimi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchga jiddiy tahdid soladigan illatdir. Shu bois, unga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir.

Bugun korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish va davlat boshqaruvida

bir yilda o‘rtacha 130 million so‘m asossiz sarflanishining oldi olindi.

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi organlarida ham qonun ustuvorligini ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda.

Departament tomonidan iqtisodiy jinoyatlar, yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida 16 ming 600 dan ortiq huquqbuzarlik aniqlanib, 5,2 mingga ma‘muriy va 11 ming 470 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

O‘tkazilgan tezkor tadbirlar davomida 3682 ta yashirin iqtisodiy faoliyat fosh etilib, 301 milliard so‘mlik tovar-moddiy boyliklar olib qo‘yildi, valyutaning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq 586 ta huquqbuzarlik aniqlanib, 2,5 million AQSH dollari miqdoridagi mablag‘ musodara qilindi.

Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro hujjatlari bo‘yicha 94,3 trillion so‘m qarzdorlik, jumladan, davlat foydasiga qariyb 62 trillion so‘m undirildi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash, jinoyatlarni sifatli tergov qilish va fuqarolar huquqlarini ishonchli himoyalash, eng avvalo, malakali kadrlarga bog‘liq. Shu ma‘noda, mamlakatimizda turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yagona yondashuv asosida tergov kadrlarini tayyorlashning yangi tizimi yo‘lga qo‘yilgani muhim voqeadir.

Mazkur tizim doirasida Huquqni muhofaza qilish akademiyasining tergov yo‘nalishidagi 220 nafar ilk bitiruvchiga oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi diplomlar topshirildi va ularning barchasi huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ishga joylashtirildi.

Qisqa muddatda akademiya zamonaviy ta‘lim infratuzilmasi — ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, o‘quv-imitatsiya xonalari, kriminalistika laboratoriyalari, axborot-resurs markazi, sport majmuasi va talabalar turar joyi shakllantirildi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida bosib o‘tgan yo‘limizga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqat tobora yaqqol namoyon bo‘ladi: mamlakat taraqqiyotining eng muhim mezon iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki raqamlar emas, avvalo, insonning hayot sifati, huquq va erkinliklarining qay darajada ta‘minlanganidir.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li inson qadrini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, adolatli jamiyat barpo etish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan.

Binobarin, bundan buyon ham “inson — jamiyat — davlat” tamoyili prokuratura organlari uchun muhim dasturilamal bo‘lib qoladi.

Yana ham soddaroq aytganda, bugun prokuratura xodimi uchun eng asosiy mezon



shaffoflikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha manzilli “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, amaliy chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Masalan, Andijon viloyatidagi Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan “e-outsource.uz” dasturi test rejimida joriy etildi.

Natijada yetkazib berilayotgan mahsulotlar ustidan nazorat kuchaytirilib, budjetdan

aniqlangan qonunbuzilishlar soni emas. Eng muhim natija buzilgan huquqning tiklangani, adolat qaror topgani, qonun ustuvorligi ta‘minlangani va fuqaroning davlatga ishonchi mustahkamlanganidir.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi bizga yana bir haqiqatni eslatadi: istiqlolni asrash va uni mustahkamlash faqat iqtisodiy qudratni oshirish bilangina emas, balki huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etish bilan ham bevosita bog‘liq.

Shunday ekan, oldimdizdagi vazifa aniq: qonun ustuvor bo‘lgan, inson qadri yuksak, adolat qaror topgan va xalq rozi bo‘lgan yangi O‘zbekistonda barpo etish!



Festival

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uz_news



yuz.uz_news

UZUM SAYLI –

QADRIYATLAR TARANNUMI VA QUT-BARAKA BAYRAMI

Parkent azaldan fayzli bog‘lari va xushta‘m uzumlari bilan dong taratgan. Bu zaminda tok parvarishlash oddiy dehqonchilik mashg‘uloti emas, balki avloddan avlodga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos mehnat madaniyati, tajriba va an‘anadir. Asrlar davomida shakllangan bu maktab bugun zamonaviy agrotexnologiyalar, ilmiy izlanishlar, seleksiya yutuqlari va eksport imkoniyatlari bilan uyg‘unlashib, o‘zbek uzumchiligining yangi taraqqiyot bosqichini belgilamoqda.

Joriy yil 21-22-avgust kunlari Turizm qo‘mitasi va Toshkent viloyati hokimligi hamkorligida Parkent tumanining Zarkent qishlog‘ida “Uzum sayli — 2026” xalqaro festivali bo‘lib o‘tdi. Tadbirni o‘tkazishdan asosiy maqsad sayyohlar oqimini oshirish, uzumchilik va vinochilik yo‘nalishida tajriba almashish, ekoturizm mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish hamda xorij sarmoyasini mamlakatimizga jalb qilishdan iborat. Festivalda respublikaning barcha viloyatidan fermer xo‘jaliklari, etnoturizm yo‘nalishidagi

to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq to‘rtinchi marta o‘tkazilayotgan mazkur festival o‘zbek uzumchiligining boy tarixi, bugungi salohiyati va kelgusi istiqbollarini o‘zida mujassam etgan nufuzli xalqaro maydonga aylanib bormoqda.

Bu yilgi festivalda xorijiy davlatlarning O‘zbekistondagi elchixonalari, xalqaro tashkilotlar vakillari, olimlar, ekspertlar, soha mutaxassislari, tadbirkorlar hamda yirik vinochilik korxonalari vakillari ishtirok etdi.



tadbirkorlar va turli tabiiy ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar vakillari ishtirok etdi.

Prezidentimizning 2025-yil 24-iyuldagi “Toshkent viloyatida ishbilarmonlik muhiti, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashning qo‘shimcha chora-tadbirlari

Tadbir dasturidan ilmiy-amaliy konferensiyalar, biznes-seminarlar va mahorat darslari ham o‘rin oldi. Ularda uzum yetishtirish samaradorligini oshirish, yangi navlarni joriy etish, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish, mahsulotni saqlash va qayta ishlash,



Hozir viloyatda yetishtirilayotgan uzumning 50 ming tonnadan ortiq qismi 15 davlatga, vino mahsulotlari esa 12 davlatga eksport qilinmoqda. Kelgusi ikki yilda viloyatda yana 12 ming gektar yuqori hosildor uzum plantatsiyalarini barpo etish rejalashtirilgan.

eksport hajmini ko‘paytirish, shuningdek, xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish masalalari muhokama qilindi. Xorijlik va mahalliy mutaxassislar sohaga oid ilg‘or tajribasi bilan o‘rtoqlashdi.

— Toshkent viloyatida uzumchilikning boy va o‘ziga xos tarixi bor, — deydi Toshkent viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Xurshid Qoraboyev. — So‘nggi yillarda viloyatimizda uzumchilikni zamonaviy asosda rivojlantirish, mahsulot turlarini ko‘paytirish

va eksportbop navlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, joriy yilda ilk bor danaksiz “Avatar” uzum navi yetishtirilib, dastlabki hosil olindi. Mutaxassislar uning eksport salohiyati yuqori ekanini ta‘kidlamoqda. Hozir viloyatda yetishtirilayotgan uzumning 50 ming tonnadan ortiq qismi 15 davlatga, vino mahsulotlari esa 12 davlatga eksport qilinmoqda. Kelgusi ikki yilda viloyatda yana 12 ming gektar yuqori hosildor uzum plantatsiyalarini barpo etish rejalashtirilgan. Natijada uzumzorlar maydoni 49 ming gektarga, yalpi hosil esa 520

ming tonnaga yetkazilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar uzumchilikning hudud iqtisodiyotidagi o‘rni tobora ortib borayotganini, tarmoqda eksportbop mahsulot yetishtirish va yangi ish o‘rinlari ochish imkoniyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda yetishtirilayotgan 30 ga yaqin xo‘raki va musallasbop uzum navlarining 13 tasi Toshkent viloyatida yaratilgani hududda uzumchilik va seleksiya maktabi qanchalik mustahkam shakllanganidan dalolat beradi.

Mashhur uzumchi-seleksioner Rizamat ota Musomuhamedov qariyb 15-yillik izlanish va tadqiqotlari natijasida mahalliy iqlim sharoitiga mos, serhosil uzum navini yaratgan.

— Hozir 1 gektar 30 sotix maydonda uzumning turli navlarini Samarqand va vodiylar viloyatlaridan olib kelib, yetishtiryapmiz. Maydonlarimiz lalmi yerdan iborat. Qishda qor, bahorda yomg‘ir suvidan unumli foydalanib, tokzorni parvarishlaymiz, — deydi zarkentlik usta dehqon Alimardon Dehqonov. — O‘tgan yilgi sayilda 15 million so‘mlik uzum sotdik. Bu yil ham hosil mo‘l, xaridor ko‘p. Mehnatning ortidan farzandlarimizni o‘qitdik, uy-joylar qurdik, to‘ylar qildik. Uzumning barakasi bor.

Zarkentdagi xalqaro uzum sayli nafaqat hosil bayrami, balki halol mehnat ulug‘lanayotgan, dehqonning rizqi va barakasi namoyon bo‘layotgan fayzli ayyom hamdir. Har bir xaridor dasturxoniga bir bosh uzum bilan birga Zarkent dehqonining mehnati, mashaqqati va mehr-oqibatidan ham olib ketgandek bo‘ladi.

— Birinchi marta ishtirok etayotgan bo‘lsam ham bu tadbir menda katta taassurot qoldirdi, — deydi xitoylik Yan Jun. — Men yashaydigan Sinszyan viloyatida ham uzumning turli ajoyib navlari yetishtiriladi. Ammo O‘zbekiston uzumlarining ta‘mi va ko‘rinishi o‘ziga xos ekanini his qildim. Bu safarimiz davomida o‘zbekistonlik va xitoylik uzum yetishtiruvchilar o‘rtasida tajriba almashish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha rejalarni ham belgilab oldik.

Parkent bugun nafaqat uzum yetishtiruvchi hudud, balki milliy dehqonchilik an‘analari, ilmfan, innovatsiya, eksport va turizm manfaatlarini birlashtirgan o‘ziga xos tajriba maktabi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

21-22-avgust kunlari Parkentda bo‘lib o‘tgan uzum sayli qadimiy dehqonchilik an‘analarning zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashayotganini yaqqol namoyon etdi. Ikki kun davom etgan xalqaro festivalda qishloq xo‘jaligi yarmakalari, vino sanoatining xalqaro brend kompaniyalari ko‘rgazmalari, uzumchilik yo‘nalishidagi xalqaro konferensiya va anjumanlar yuqori saviyada tashkil etildi.

Festival doirasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni keng tarqib etishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Folklor jamoalari, estrada xonandalarining chiqishlari yig‘ilganlarga xamzab bo‘ldi. Mehmonlar uchun hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmalari, milliy taomlar va liboslar namoyishi, hududlarning o‘ziga xos an‘ana va urf-odatlarini aks ettiruvchi keng ko‘lamli madaniy dasturlar o‘rin oldi.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yetuklik ostonasida

DALADAN RIZQ, MEHNATDAN OBRO‘ TOPAYOTGAN AVLOD

Yerning tilini hamma ham tushunavermaydi. Undan hosil olish uchun, avvalo, unga ishonish, asrash va yillar davomida mehnat qilgan holda tillashish kerak. Yurtimizning chekka tumanlaridan biri Angorning terllash dalarida halol mehnati bilan tanilayotgan yosh fermer Akmal Abduxoliquov uchun yer shunchaki rizq manbai emas, uning hayot maktabi, orzulari va kelajak rejalari boshlangan nuqta.



Akmal Abduxoliquovning atigi 18 sotixli oilaviy tomorqasi bor edi. Shu kichik maydonda yetishtirilgan hosil uning fermerlikka bo‘lgan qiziqishini mustahkamladi. Muhimi, Akmal yerga ishlov berishning o‘zi emas, undan unumli foydalanishni o‘rgandi. Bu esa yoshi yigitni yanada katta maqsadlar sari yetakladi.

— Har qanday sharoitda yerning dardini to‘g‘ri anglab, shunga yarasha muomala qilmasang, u bilan tillashmasang, hech qachon yuqori hosil ololmayсан. Ekin maydonlarimning unumdorligini oshirishga juda katta e‘tibor beraman. Ishda natijaga erishish hamisha kishidan halollik, sabr, bardosh, mashaqqat va qat‘iy tartib-intizom talab etadi, — deydi yosh fermer.

Har bir katta natijaning ortida kichik, ammo qat‘iy qadamlar bo‘ladi. Akmal Abduxoliquov uchun ana shunday qadamlardan biri — qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish bo‘ldi. Elektron aukson orqali yer maydonini ijaraga olish imkoniyati uning rejalarni kengaytirdi.

Akmal Abduxoliquov shu imkoniyatdan foydalanib, 5,5 gektardan ortiqroq yer maydonini 30 yil muddatga ijaraga oldi. Ushbu yerga hozir beshdan ortiq turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan. Yerning bir qismida yeryong‘oq, yana bir qismida esa eksportbop sarimsoqpiyoz va brokkoli yetishtirish uchun tayyorqalik ishlari olib borilmoqda. Chunki zamonaviy fermer uchun yerga urug‘ qadashning o‘zi kifoya emas. Bozor talabini ham, ertangi kunni ham oldindan ko‘ra bilish kerak.

“Dehqonning taqdiri dalada yoziladi”, deydi dono xalqimiz. Qaysi ekinni, qachon ekish, qancha suv berish, tuproqni qanday tayyorlash kabi jarayonlar hosil taqdirini belgilaydi. Shu bois, qahramonimiz fermerlikni faqat kun bo‘yi dalada mehnat qilish emas, o‘rganish, izlanish va yangilikdan ortda qolmaslik deb hisoblaydi. U har bir ekinning agrotexnik xususiyatlarini, tuproq tarkibi va sug‘orish me‘yorlarini o‘rganib, zamonaviy agrotexnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga harakat qiladi. Chunki fermerning qarashicha, yerga bilimsiz kirib borish — natijani tasodifiy topshirish bilan barobar.

Ammo bu yutuqlarni faqat yosh fermerning bugungi izlanishlari bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Chunki bu dalalarda Akmal bilan yelkama-yelka turib mehnat qilgan yana bir inson — otasi Qahramon Abduxoliquov bor. Qahramon ota yillar davomida yer bilan tillashib, dehqonchilikning sir-asorini o‘rgangan, sarimsoqpiyoz yetishtirishda tajriba to‘plagan. Ota yerga mehnri n‘rgatdi. Farzand esa shu mehnri yangi bilim va yondashuvlar bilan davom ettirmoqda.

Bu oila uchun 2026-yil haqiqatan barakali keldi. Avvalo, ko‘zlangan hosil yig‘ishtirib olindi. Yerga qadalgan urug‘ mehnat bilan parvarishlanib, o‘z samarasini berdi. Xonadonga baraka, oilaga quvonch kirdi. Ammo yil xushxabari hosilidan ham katta bo‘ldi.

Prezidentimizning “Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, Akmal “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi.

— Bu yil hayotimdagi unutib bo‘lmas, quvonchli voqealardan biri yuz berdi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qatnashish va erishgan natijalarim haqida u kishiga so‘zlab berish baxtiga musharraf bo‘ldim. Ko‘rsatilgan yuksak e‘tirof g‘ayratimga g‘ayrat, shijoatimga shijoat qo‘shdi. Ko‘ksimni bezab turgan bu medal esa menga bildirilgan ishonch namunasi bo‘lib, zimmamga yanada katta mas‘uliyatni yukladi, — deydi u.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza



Bugun O‘zbekiston aholisi 39 milliondan oshib, yiliga o‘rtacha 1,8 foiz, taxminan salkam 1 millionga ko‘paymoqda. Aholining tez ko‘payishi, avvalo, ulkan mehnat salohiyati va mamlakat kelajagining eng qimmatli boyligidir.

Iqtisodiyotimiz so‘nggi yillarda misli ko‘rilmagan sur‘atda rivojlanmoqda. Joriy yilning birinchi choragida yalpi ichki mahsulot 8,7 foiz o‘tdi. Yil yakunida bu ko‘rsatkich 8 foizdan yuqori bo‘lishi kutilmoqda. Narxlar barqarorligi borasida ham ijobiy natijalarga erishildi: inflyatsiya 2025-yil yakunida so‘nggi yillardagi eng past darajaga — 7,3 foizga tushdi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi islohotlar, Milliy investitsiya fondi orqali yetakchi xalqaro moliya institutlari bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik barqaror makroiqtisodiy muhitni ta‘minlab, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirmoqda.

Qishloq xo‘jaligi bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Sohada 3,6 million kishi, ya‘ni mehnatga layoqatli aholining qariyb to‘rtdan bir qismidan ko‘prog‘i band. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar — yer munosabatlarni raqamlashtirish, elektron aukson tizimi, “Agroportal” yagona integratsiya platformasi, fermer kooperativlari tarmog‘ining kengayishi sohani yildan yilga zamonaviy, raqobatbardosh tarmoqqa aylantirmoqda. Ayni paytda birgina Qashqadaryo viloyatida 15 ta paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyat yuritmoqda. Mamlakat bo‘yicha mingdan ortiq qishloq

xo‘jaligi kooperativi ishlab turibdi. 2,8 million gektar yerda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan. Bular tarmoqdagi tub o‘zgarishlarning bir qismi, xolos.

Iqtisodiy hisob-kitoblarga ko‘ra, aholi sonining bunday tez sur‘atda o‘shishi natijasida mehnat bozoriga har yili yuz minglab yoshlar kirib kelmokda. Mutaxassislarning taxminiy hisob-kitoblari faqat tabiiy o‘shish hisobiga yiliga 500 mingdan 900 minggacha yangi ishchi kuchi mehnat bozoriga qo‘shilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Masalaga sirtidan qaralsa, bu jiddiy muammoga o‘xshaydi. Chunki har yili shuncha ishchi o‘rni ochish oson ish emas. Lekin muammoga to‘g‘ri yondashilsa, uni hal etish imkonli bor. Zero, ishchi kuchi ko‘payishi aslida mamlakat rivojlanishi uchun eng katta xaziradir.

Nazarimizda, masalani hal etishda agroklastlar alohida o‘ringa ega. Chunki xomashyo yetishtirishdan tortib, qayta ishlash, qadoqlash va eksportgacha bo‘lgan butun zanjimi qamrab olgan agroklastlar ushbu salohiyatni barqaror ish o‘rinlariga aylantirish uchun eng qulay maydon.

Hozirgi sharoitda agroklastlar hissasiga tushadigan ish o‘rinlari ehtiyojini to‘liq qoplash uchun sohada yalpi qo‘shilgan qiymat yiliga o‘n foizdan ortiq sur‘atda o‘shishi lozim. Shunda

ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Bunga esa, birinchi navbatda, qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish va klaster atrofidagi hamkor korxonalar sonini ko‘paytirish orqali erishish mumkin.

Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, bizningcha, quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, xomashyoni joyning o‘zida qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish zarur. Har bir agroklaster atrofida qadoqlash, saqlash va birlamchi qayta ishlash bo‘yicha kichik va o‘rta korxonalarni imtiyozli kreditlash hamda soliq preferensiyalari orqali rag‘batlantirish bir necha barobar ko‘proq ish o‘rni ochishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, kasb-hunar ta‘limini klasterlar ehtiyojiga moslashtirish lozim. Hududiy kasb-hunar maktablari o‘quv dasturlarini aynan shu hududdagi agroklastlar talabiga — qayta ishlash texnologiyasi, logistika, sifat nazorati bo‘yicha moslab qayta qurish yoshlar bandligini tezroq ta‘minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kooperatsiya tizimini yanada kengaytirish zarur. Bugun mingdan ortiq qishloq xo‘jaligi kooperativi faoliyat yuritayotgani ijobiy natija, albatta. Biroq bu tizimni barcha viloyatning chekka tumanlariga ham yetkazish orqali qo‘shimcha o‘n minglab oilaviy fermer xo‘jaliklarini rasmiy zanjiriga jalb etish mumkin. To‘rtinchidan, raqamli platformalarni yosh tadbirkorlar uchun yanada ochiq qilish maqsadga muvofiq. “Agroportal”, “Fermer AI” kabi tizimlar orqali yoshlarga o‘z fermer xo‘jaligi yoki qayta ishlash biznesini boshlash uchun soddalashtirilgan yo‘l-yo‘riq va mikromoliyalashtirish imkoniyatlari taqdim etilishi lozim.

Beshinchidan, hududiy monitoring tizimini joriy qilish ham yaxshi natija beradi. Har bir viloyat bo‘yicha aholi o‘shishi va agroklastlar tomonidan ochildayotgan ish o‘rinlari nisbatini muntazam kuzyatib borish, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi kabi aholi zich joylashgan hududlarda nazoratni yo‘lga qo‘yish ishsizlikni o‘z vaqtida kamaytirish imkonini beradi.

Yurtimizdagi qishloq xo‘jaligi islohotlari — yer munosabatlardagi shaffoflikdan tortib, kooperatsiya va raqamlashtirishgacha mamlakatimiz oldida turgan ulkan demografik salohiyatni barqaror ish o‘rinlariga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Samandar DOLIIYEV,
mustaqil tadqiqotchi

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

ZAMONAVIY RAHBAR –

Keyingi o‘n yillikda O‘zbekistonda davlat xizmatchilariga munosabat tubdan o‘zgarganini shunchaki voqelik sifatida baholash xato bo‘ladi. Zero, ilgari rahbarlardan qonunlarni yaxshi bilish va berilgan topshiriqlarni ijro etish talab qilingan bo‘lsa, endi undan butun tizimni rivojlantirish, o‘zgarishlarni boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson kapitaliga sarmoya kiritish, xavf-xatarlarni oldindan baholash va natija uchun shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish talab etilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yo‘lda boshqaruv tizimi vakillariga shaxsan o‘zi namuna ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz nutq va chiqishlarida amaldorlar uchun xonadan chiqmay, kursida o‘tirib idora qilish davri o‘tganini, ular odamlar orasiga kirib borishi, aholining dardu tashvishiga quloq tutishi kerakligini bot-bot takrorladi. Shu tariqa o‘rni kelganida tavsiya, ba‘zan e’tirof yoki tanqid orqali davlat boshqaruvi sohasi rivojini yangi bosqichga ko‘tardi.

Prezidentimiz yaqinda yoqlig‘i-energetika tarmog‘idagi kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida tarmog‘da boshqaruv va mas’uliyatni kuchaytirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berarkan, “Energetikada muammo mablag‘da emas, chunki qancha kerak bo‘lsa, topib beryapmiz. Muammo tizimning boshqaruvida”, deya alohida ta’kidladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, kuchli iqtisodiyot, barqaror taraqqiyot va aholi farovonligi zahirida, eng avvalo, zamonaviy fikrlaydigan, strategik qaror qabul qila oladigan va global jarayonlarni chuqur anglaydigan rahbarlar turibdi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tanqid naqadar o‘rinli ekanini anglash mumkin.

Markazlashgan yirik davlat tuzgan Amir Temurni ayni shu xislati ulug‘ qilgan. Tarixiy qo‘lyozmalarda yozilishicha, Amir Temur Eronga yurish boshlaganda, Isfahon gamali cho‘zilib ketib, Saroymulkxonimga maktub jo‘natadi, “Qo‘shning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring”, deyilgandi unda. Bibixonim “Siyosatingiz ham tugadimi”, deb javob yozgan. So‘ng Amir Temur turli suyaklarni kestirib, orqasiga muhr urdirib, vaqtincha pul chiqartirgan, shahar-qishloqlardan suyak-pullarga oziq-ovqat sotib olgan. Isfahon taslim bo‘lgach esa suyak pullarni zar pulga almashtirib bergan.

Ushbu qisqagina hikoyadan ham Amir Temurning naqadar tadbirli kishi bo‘lgani, rahbarning salohiyati qanday bo‘lishi kerakligi, davlat boshqaruvida rahbar kadrlarning o‘rni va ahamiyati nechog‘liq muhimligini ko‘rish mumkin.

Xo‘sh, salohiyatli rahbar kadrlarni qanday

shakllantirish, kamchiliklardan xoli, ta’bir joiz bo‘lsa, “soat mexanizmi” kabi mukammal ishlaydigan davlat boshqaruvi tizimini qanday qilib barpo etish mumkin? Albatta, davlat xizmatini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, rahbar kadrlar malakasini uzlsksiz oshirish, ularni xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash zarur.

Raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan investitsiya

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida davlat xizmatchilarining professional salohiyatini oshirish, xalqaro tajribani keng joriy etish, xorijiy ta’lim va stajirovka dasturlarini tizimli tashkil qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida Prezidentimizning 2025-yil 6-dekabrda “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan Boshqaruv samaradorligi agentligi tashkil etildi. Tashkilot faoliyatini davlat xizmati sohasida mutlaqo yangi yondashuv shakllantirishga qaratilgan.

Avvallari davlat xizmatchilarining malakasi ko‘proq qisqa muddatli o‘quvlar yoki alohida loyihalar orqali oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda mazkur jarayon davlat boshqaruvining uzoq muddatli strategiyasiga aylanmoqda. Agentlikning asosiy vazifalaridan biri ham davlat xizmatchilari va rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishdan iborat.

Buning uchun davlat boshqaruvida natijaga asoslangan boshqaruv (Results-Based Management) tizimini joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilish, rahbarlarni dunyoning yetakchi universitetlarida tayyorlash, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabi vazifalar tizimli amalga oshirilmoqda. Muhim jihati shundaki, bugun davlat xizmati uchun kadr tayyorlashga faqat ta’lim emas, balki mamlakatning kelajak raqobatbardoshligini ta’minlaydigan strategik investitsiya sifatida qaralmoqda.

Dunyo tajribasi ko‘rsatmoqdaki, davlat boshqaruvida faqat jarayonlarni tashkil qilish emas, balki aniq natijaga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, so‘nggi



KUCHLI DAVLATNING

MUHIM KAPITALI

yllarda ko‘plab mamlakatlarda “Results-Based Management” — natijaga asoslangan boshqaruv tizimi keng joriy etilmoqda. Mazkur yondashuvning asosiy mohiyati davlat organlari faoliyatini sarflangan mablag‘ yoki bajarilgan ishlar soni bilan emas, balki aholi hayotida qanday ijobiy o‘zgarish yuz bergani orqali baholashdan iborat. Ya’ni muhim savol “qancha ish qilindi” emas, balki “qanday natijaga erishildi” bo‘ladi. Bu esa rahbarlardan mutlaqo yangi bilim, yangi fikrlash va yangi boshqaruv madaniyatini talab qiladi. Zamonaviy rahbar endi faqat ijrochi emas, u strateg, islohotchi, lider va o‘z jamoasini natijaga yetaklaydigan boshqaruvchi bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda hech bir mamlakat barcha bilim va tajribani mustaqil ravishda shakllantira olmaydi. Davlat boshqaruvi sohasida ham eng samarali yo‘l dunyoda o‘zini oqlagan modellarni o‘rganish, ularni milliy xususiyatlarga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etishdir.

— Shu maqsadda O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi dunyoning yetakchi universitetlari, xalqaro tashkilotlar, rivojlanish institutlari va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda, — deydi agentlik axborot xizmati boshlig‘i Sevara Zokirova. — Bu hamkorlik faqat tajriba almashish bilan cheklanmaydi. Eng muhimi, davlat xizmatchilari uchun xalqaro ta’lim, stajirovka, Executive Education dasturlari, grantlar va amaliy malaka oshirish mexanizmlari bosqichma-bosqich yagona tizimga birlashtirilmoqda. Bu esa O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlashning mutlaqo yangi ekotizimi shakllanayotganidan dalolat beradi.

Soha boshqaruvida Yevropa tajribasi

Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan joriy etilayotgan mazkur yondashuvning amaliy namunasi sifatida Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda kompleks loyiha amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyiha doirasida Yevropa Ittifoqining grant mablag‘lari hisobidan Italiyaning Tusha universitetida iqtidorli 35 kishi magistratura bosqichida tahsil olmoqda.

Dastur orqali mutaxassislar faqat akademik bilimlarni emas, balki Yevropa mamlakatlarida agrar siyosatni shakllantirish, resurslarni boshqarish, innovatsion yechimlarni joriy etish va qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanish modellarini ham o‘rganmoqda. Kelgusida ularning ushbu bilimlari yurtimiz agrar sohasini modernizatsiyalashtirishda muhim intellektual resursga aylanadi.

Bugungi kunda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida Oksford, Edinburg, Lids, Reding, Sidney, Arizona va Pitsburg universitetlarida tahsil olgan mutaxassislar mas’ul rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Bu esa davlat siyosatida muhim tamoyil qaror topayotganini

anglatadi: xorijda o‘rtirilgan bilim va tajriba mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Mazkur rahbarlar tomonidan zamonaviy boshqaruv usullari, tahlilga asoslangan qaror qabul qilish amaliyoti, ilmiy yondashuv va innovatsion yechimlar soha rivojiga bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Bu tajriba kelgusida boshqa davlat organlari uchun ham namunaviy model vazifasini o‘tadi.

Rahbar kadrlarni tayyorlash faqat amalda ishlash turgan davlat xizmatchilari bilan cheklanmaydi. Buning uchun iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda “Young Talents” milliy tanlovi tashkil etildi. Tanlov natijasida mamlakatning turli hududlaridan eng iqtidorli 50 nafar yosh saralab olindi.

Ular uchun FAO hamda IFADning mintaqaviy ofislarida xalqaro stajirovka o‘tash mexanizmi yaratildi. Bu nafaqat yoshlarning bilim va malakasini oshirishga, balki xalqaro ekspertlar bilan birgalikda ishlash, yirik loyihalarni boshqarish va ilg‘or boshqaruv madaniyatini o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, dastur orqali kelajak rahbarlari davlat xizmatiga tayyorlanmoqda.

Boshqaruv samaradorligi agentligi xalqaro hamkorlikni faqat xorijda ta’lim tashkil etish bilan cheklab qo‘ymayapti. Xorijiy tajribani mamlakatimizga olib kelish ham ustuvor vazifalardan biri. Buning yorqin namunasi sifatida Koreya Respublikasining 4,5 million dollar miqdoridagi granti hisobidan Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida qishloq xo‘jaligi sohasi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi tashkil etildi.

Ushbu markazda tuman hokimi o‘rinbosarlari uchun xorijiy ekspertlar ishtirokida nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Bu yerda ishtirokchilar zamonaviy agrar boshqaruv, resurslardan samarali foydalanish,

Ilg‘or model amaliyotda

Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan mazkur tashabbus bir vazirlik bilan cheklanib qolmaydi. Qishloq xo‘jaligi sohasida boshlangan pilot loyiha bosqichma-bosqich boshqa vazirlik va idoralarga ham tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Bu orqali xalqaro ta’lim, Executive Education, stajirovka va malaka oshirish dasturlari davlat organlari ehtiyoqlari asosida rejalashtirildi, grant mablag‘lar keng jalb qilindi va o‘rtirilgan bilimlar davlat boshqaruvi amaliyotiga tizimli integratsiya qilinadi.

Bu esa davlat xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlashning mutlaqo yangi institutsional modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Taraqqiyot tarixi ko‘rsatadiki, barqaror rivojlangan davlatlarning eng katta boyligi tabiiy resurslar emas, balki bilimlari insonlardir. Zamonaviy rahbarlarni tayyorlashga kiritilgan har bir sarmoya davlat boshqaruvi samaradorligi, islohotlar natijadorligi, investitsiya muhiti yaxshilanishiga, eng muhimi, aholi farovonligiga xizmat qiladi.

Yangi model aynan shu maqsadga qaratilgan. U rahbar kadrlarni tayyorlashning barcha bosqichlarini — iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni xalqaro darajada o‘qitish, stajirovkadan o‘tkazish, zamonaviy kompetensiyalar bilan qurollantirish va o‘rtirilgan bilimlarni davlat boshqaruvigaga qaytarishni yagona tizimga birlashtiradi.

Bu kadrlar siyosatidagi navbatdagi islohot emas, davlat boshqaruvi falsafasini o‘zgartirishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Demak, xalqaro standartlar asosida tayyorlangan rahbar kadrlar nafaqat bugungi islohotlar, balki yangi O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyoti va ezigu maqsadlarning ishonchli tayanchi bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MAKTAB MASLAHATCHILARI
ISH BOSHLAGUQDA

Prezidentimizning o‘quvchilar qiziqishlarini o‘rganish va shunga ko‘ra yo‘naltirishni ko‘zda tutgan “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinganiga ham hademay bir yil bo‘ladi. Tizimda uzoq yillardan buyon yig‘ilib qolgan muammolarga barham beradigan mazkur qaror bilan qisqa muddatda “Kelajak” markazlari tashkil etilib, ular faoliyatidagi dastlabki natijalar ko‘rina boshladi.

Ushbu markazlarning maktablardagi vertikal tizimini yaratish uchun joriy qilingan maktab maslahatchisi lavozimi ham risoladagidek yuritilsa, albatta, kutilgan samaraga erishiladi. Mutasaddilarning aytishicha, mazkur lavozimga malakali va munosib kadrlarni tanlab olish maqsadida tanlov jarayoni bosqichma-bosqich o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, tanlov.uzedu. uz platformasi orqali 3400 ta umumta’lim maktabiga tanlov e’lon qilinib, 15 ming 225 talabgordan arizalar qabul qilindi.


Tanlovning birinchi mavsum yakunlariga ko‘ra, 2551 ta umumta’lim maktabida maktab maslahatchilari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tanlovning ikkinchi mavsumida 7695 ta umumta’lim maktabidagi maktab maslahatchisi lavozimi uchun vakant e’lon qilindi. 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab 10 mingdan ortiq umumta’lim maktabida maktab maslahatchilari faoliyatini to‘liq yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarning qiziqishi, iste’dodi va qobiliyatini aniqlash hamda rivojlantirish bo‘yicha yagona tizimli yondashuv ta’minlanadi. 7-9-sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga qiziqitirish va yo‘naltirishi, “Prezident iqtidorli



farzandlari” milliy dasturida nazarda tutilgan g‘oya va maqsadlarni o‘g‘il-qizlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishi kutilayotgan maktab maslahatchilari shunchaki tayinlanmayapti. Zero, o‘shib kelayotgan etarimiz egalarni munosib

yo‘naltira oladigan liderlarning o‘zi ham har tomonlama yetuk shaxslar bo‘lishi kerak-da.

Endi ularning ham o‘z ustida ishlashi, sog‘lom raqobatga kirishishiga sharoit yaratish zarur. Ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lidagi



barcha ezigu tashabbuslar qatori maktab maslahatchilarining professionalligini oshirish sharoiti ham keng qo‘llab-quvvatlanadi. Hatto aksariyat maslahatchilar hali faoliyat boshlamasidan kasbiy ko‘nikma va mahoratini oshira boshladi.

Respublika “Kelajak” markazi tomonidan yaqindagina Buxoro viloyatida tashkil etilgan maktab maslahatchilarining I respublika forumi bu boradagi ilk qadam bo‘ladi. Forum yangi lavozim egalaringan kasbiy salohiyatini oshirish, faoliyatini yagona tizim asosida yo‘lga qo‘yish hamda o‘quvchilar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni ommalashtirish maqsadida hududlardan 208 nafar namunali maktab maslahatchisi, 14 nafar hududiy mas’ul hamda tegishli vazirlik va idoralarning mas’ul xodimlarini bir joyda jamladi.

Biror ishga kirishar ekansiz, uning mohiyatini to‘laqlonli anglab yetmasangiz, ko‘ngildagidek natija tugul, ishning yurishi ham qiyin kechadi.

Shu ma’noda, ishtirokchilar, avvalo, “Prezident iqtidorli farzandlari” dasturi va o‘quvchining ijtimoiy portfoliosi, qo‘shimcha ta’lim tizimini rivojlantirishda maktab maslahatchisining roli haqidagi tushunchalarga ega bo‘ldi.

“Maslahatchining kundaligi” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, ayniqsa, yoshlar uchun munosib tuhfah bo‘ladi. Zero, endi ish boshlayotgan kadrlar aniq maqsad va reja bilan faoliyat yuritisa, kasbiy ko‘nikmalarni egallashda qiynalmaydi. Shuning uchun maktab maslahatchisining professional imij, samarali mulqot va faoliyatni tashkil etish masalalari muhokamasi ular uchun qiziq. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quvchilar bilan ishlashdagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ma’ruzalar ham ishtirokchilar e’tibori markazida bo‘ladi.

Keyingi yillarda o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan “Turon”, “Iqtidor” va “Jadidlar izidan” tanlovlari maktab o‘quvchilari orasidan noyob iqtidor egalarni kashf qilyapti. Ushbu tadbirlarni tashkil etishda maktab kutubxonachisi, musiqa va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining hisssasi katta. Shu ma’noda, forum doirasida ularning qo‘shimcha ta’limdagi faoliyati qanday bo‘lishi kerakligiga ham e’tibor qaratildi. “Mening kelajakdagi kasbim” dasturi hamda o‘quvchilarni kelajak kasbiga yo‘naltirishning zamonaviy yondashuvlari borasida fikr almashildi.

O‘quvchi qiziqishini rivojlantirish orqali maktabdagi to‘garaklarni imkoniyatlar platformasiga aylantirish — yo‘lga qo‘yilayotgan tizimning bosh maqsadi. Bu maqsadga erishishda kuchli liderlik qobiliyatiga ega maslahatchilargina talabga javob beradi. Shundan kelib chiqib ishtirokchilar shaxsiy samaradorlik, mulqot madaniyati, yetakchilik, kreativ fikrlash va tashabbuskorlik hamda sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha guruhlarda ishladi.

Forumda respublikamizning 14 hududi uchun tayinlangan bosh maslahatchilar nomi e’lon qilindi va ularga “ishonch yorliqlari” topshirildi. Respublika “Kelajak” markazi rahbari Indira Xoldorova bosh maslahatchilardan umidi katta ekanini ta’kidlar ekan, jumladan, bunday dedi:

— Ularning har biri o‘z hududida maktab maslahatchilarga o‘quvchilarni kasbga qanday yo‘naltirish, yoshlarning o‘zi bilangina emas, ota-onalar bilan qanday ishlash va boshqa zarur tavsiyalar yuzasidan seminar-treninglar o‘tkazadi. Davlatimiz rahbarining o‘zi maktabdan tashqari ta’limning vertikal tizimi vakillari bo‘lgan maktab maslahatchilariga katta ishonch bildirib turibdi. 6,5 million bolaning iqtidorini aniqlash, qiziqishiga ko‘ra munosib yo‘naltirish ularning qo‘lida.

Ayni paytda har bir maktab maslahatchisi faoliyati davlat siyosati darajasidagi masala ekanini, maktab o‘quvchilarining nurlari ehtasida katta o‘rin tutishi mumkinligini his qilib ishgah kirishayotgani aniq. “Yangi o‘quv yilidan sharaflari vazifada ish boshlayman, — dedi sirdaryolik maktab maslahatchisi Madina Ahmedova. — Faoliyatimiz avvalidan biz, maktab maslahatchilariga alohida e’tibor berilayotganidan, forum tashkil etilganidan yanada ruhlidand. Liderlik, jamoa bilan ishlash, tashabbus ko‘rsatish, qaror qabul qilish borasida foydali tavsiyalarni o‘zimga belgilab oldim. Albatta, ulardan unumli foydalanib, yoshlarning to‘g‘ri yo‘l tanlashiga sezilarli hissa qo‘shishga harakat qilamiz”.

Keksalar hamisha yaxshi ish boshida turganlarga qaratadi “Boshlayotgan ishlaring xayrli bo‘lsin”, deb duo qiladi. Biz ham etarimiz egalari taqdoriga daxldor bo‘lgan, sharaflari vazifaga kirishayotgan maktab maslahatchilarining faoliyati sermazmun bo‘lishidan umidvordim.

Munoajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Mustaqillik bayrami – bayramlarning go‘zali. U qalblarga g‘urur bag‘ishlaydigan, Vatan ozodligi, davlat mustaqilligi bilan birga shu yurt egasi bo‘lgan har bir insonning borligi, mavjudligi, qadr-u qimmat va sha’ni bilan bog‘liq ulug‘ ayyom. Shuning uchun uni “Eng ulug‘, eng aziz”, deb ataymiz. Chunki dunyoda insondan aziz, mukarram zot yo‘q. Qoraqalpog‘ diyorida ayni ana shu g‘oya qanot qoqmoqda.

AMU SOHILIDA ISTIQLOL SHODIYONALARI



**Narzulla JO‘RAYEV,
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar
jamiyati a‘zosi, siyosiy fanlar
doktori, professor**

O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat. Unda 130 dan ortiq millat va elat, 15 ga yaqin diniy konfessiya faoliyat yuritadi. Tillar har xil, tarixlar turlicha, qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analari va turmush tarzi rang-barang. Lekin maqsad yagona — istiqbol orzusi barcha xalqlar va millatlarni birlashtirib turadi. E’tiqodlar turlicha, ibodatlar har xil, taqvoning turi ko‘p. Biroq boradigan yo‘limiz bitta. Bu umummilliy birlikning o‘ziga xos, havas qilgulik ko‘rinishi. Umummilliy birlik, umummilliy yakdillik, maqsadlar mustarakligi taraqqiyotimizning asosi, buyuk kelajagimizning garovi.

Qoraqalpog‘istonga safarimiz davomida bunga yaqqol guvoh bo‘ldik. Qoraqalpoq xalqi — o‘z tarixi, madaniyati, qadriyatlariga ega xalq. Ana shu jihatdan aytish mumkinki, qoraqalpoq xalqi ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining gavhari. Bu gavharning betakror jilolarida, rang-barang tovlanishlarida qardoshlikning, qondoshlikning, jondoshlikning, o‘tmishiyu kelajagi mustarak bo‘lgan buyuk ideallarning ifodasini ko‘rdik. Ko‘cha-ko‘yda, uchrashuvlarda yuzlab odamlar bilan yuzma-yuz turganda bu ezigulik va xushvaqtlikning yorqin mazmunini angladik. Bu hammamizning boyligimiz, hammamizning ma’naviy qudratimiz. Zotan, O‘zbekiston xalqining qudrati uning birligida, hamjihatligida, bir-birining taqdiriga daxldorligida va taqdiridoshligida. O‘zbekiston xalqining buyuk qudrati — uning millati, elati, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa jihatlaridan qat’i nazar, O‘zbekiston deb atalgan salkam 40 millionli ulkan xonadonimizning, muqaddas oilamizning taqdiriga javobgarlik tuyg‘usining balandligida, taqdiridoshlik hissining mustahkamligida. Bu, aytish mumkinki, eng katta kuch, beqiyos qudrat.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida tumanlar, shaharlar bo‘ylab safarimiz boshlandi. 12-15-avgust kunlari Qoraqalpog‘iston bo‘ylab “Mustaqillik to‘yi” tadbirlari jo‘shqin va bayramona o‘tkazildi. Tadbir doirasida ko‘pdan-ko‘p ma’rifiy uchrashuvlar, kitob aksiyalari, milliy liboslar fleshmobi, kinolar namoyishi, harbiy xizmatchilar bilan uchrashuv, vatanparvarlik uchrashuvlari, xayriya tashriflari, bolalar uchun bayram tashvirlari va katta konsertlar tashkil etildi. Tadbirlar turlicha, rang-barang, shakl va uslub jihatidan bir-birini takrorlamaydigan, xalqchil, sodda, ammo ta’sirchan holda o‘tkazildi.

Festival faqat katta sahnalarda emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri aholi orasida, turar joylar, mahallalar, maktablar, o‘quv yurtlari maydonlarida bo‘lib o‘tdi. Bayram ruhi ko‘chalarga, ko‘chalardan maydonlarga, maydonlardan yoshu qarining qalbiga, shuuriga ko‘chdi.

Jamoamiz guruhlariga bo‘linib, 34 ta yirik ijtimoiy loyiha va ommaviy aksiyani amalga oshirdi. 120 dan ortiq ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va sport tadbiri tashkil etildi. Ularda 40 mingga yaqin odam ishtirok etdi. Nukus shahri va 16 tumandagi 110 dan ortiq mahalla va ovul fuqarolar yig‘inlari qamrab olindi. Bularning barchasida katta samimiylarni, e’tiqodni, Vatan va uning taqdiri bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni ko‘rish mumkin.

Qonliko‘l tumanida “Mustaqillik soatlari” loyihasi doirasida olimlar, yozuvchi-shoiralar, san’atkorlar hamda mahalliy aholi bilan o‘tkazilgan uchrashuv chin ma’noda “Mustaqillik to‘yi”ga aylandi. Bu yerda istiqolning tarixiy, ijtimoiy, huquqiy, ma’naviy va siyosiy mohiyati tushuntirib berildi. Mustaqillik yillarida erishilgan, xususan, keyingi yillarda qilingan ishlar haqida fikr yuritildi. Darhaqiqat, yangi O‘zbekiston — yangi tafakkurdagi inson, yangicha fikrlaydigan jamiyat va jahon sivilizatsiyasi bilan barobar qadam tashlaydigan zamonaviy davlat. Xalqimizning eng katta boyligi va ma’naviy qudrati ana shunda.

Aholi bilan yuzma-yuz uchrashuvda yana bir muhim mavzuga alohida e’tibor qaratildi. Bu yosh avlod va kelajak masalasi edi. Dunyo tez o‘zgarayotgan, insoniyat qadriyatlaridan uzorlashayotgan (A.Guterrish), axloqsizlik va



ma’naviy tubanlik chuqurlashib borayotgan (P.Byukenen), insoniyat tafakkurida keskin o‘zgarishlar yuz berib, insoniy mohiyatini yo‘qotayotgan (F.Fukuyama) bir paytda O‘zbekiston deb atalgan mo‘tabar oilamizda, fayzli va qut-barakali xonadonimizda ma’naviyat, ma’rifat va tarbiya asos qilib olingani, unga davlatimiz rahbarining o‘zi rahnamolik qilayotgani butun xalqimizning jahon hamjamiyatidagi irodasini, mustahkam xulq-atvorini va qat’iy e’tiqodini namoyon etayotganiga alohida urg‘u berildi.

Qaysidir davlatlar katta iqtisodiy imkoniyati, boshqalari hayratomuz harbiy salohiyati va boshqa jihatlar bilan o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotganda O‘zbekiston xalqi tarixan kamol topgan, bir necha sivilizatsiyalar jarayonida shakllangan, sof insoniy qadriyatlarga asoslangan insoniylik fazilatlarini va genetik asosga ega tarbiya belgilari bilan ulardan ustun turadi. Bu — yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi faqat o‘zigagina xos qudrati va mustahkam irodasining tayanchi.

Qo‘ng‘irot tumani o‘zining ishlab chiqarish salohiyati, sanoat, transport sohasidagi keng imkoniyatlari, yer osti va yer usti boyliklari bilan nafaqat Qoraqalpog‘istonning, balki butun O‘zbekistonning taraqqiyotida alohida mavqega ega. Bu yer Markaziy Osiyoda yagona soda ishlab chiqarish majmuasi, qadimiy, butun mintaqaga bilan bog‘langan kichik ipak yo‘li maqomidagi temir yo‘li, neft-gaz zaxiralari va albatta, katta hajmdagi qishloq



xo‘jaligi mahsulotlari bilan ham alohida ahamiyat kasb etadigan tuman. Uning markazi o‘ziga xos zamonaviy shaharchaga aylangan.

millat davomchisi, avlodlar sarchashmasi. Uni asrash millatni asrashdir. Onaning muqaddasligi, Vatanning muqaddasligi va uning millat istiqbolini ekan barcha ishtirokchilarda shodlik bilan birga burch va mas’uliyat, o‘zaro daxldorlik hislarini uyg‘otdi.

Xalqimizning ajoyib udumi bor. To‘yga borsa, to‘yona bilan odamlarning ruhini ko‘tarish, ularga rag‘bat va ishonch bag‘ishlash odatimizga aylangan. Bu bizning bir necha ming yillik qadriyatlarimizning ajralmas qismidir. “Mustaqillik to‘yi” ham xalqimizning bu ezu odatini yana bir bor namoyon qildi. O‘nlab tuman va shaharchalarda minglab odamlar huzurida bo‘ldik, ular bilan suhbatlar quridik.

San’atkorlar qo‘shiqlar kuyladi, shoiralarimiz ularga bag‘ishlab mehr, muruvvat, ehtirom va qadr-qimmat haqida she’rlar o‘qidi. Bu borada O‘zbekiston xalq artistlari Gavhar Zokirova, Mansur Toshmatov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoir Bobur Bobomurod, mahalliy san’atkorlardan O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Mirzagul Sapayeva, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist Eliza Aytneyazova hamda Qoraqalpog‘istonda xizmat

Keng va ravon asfalt yo‘llar, kechqurunlari ko‘zni qamashtiradigan, bayramona tus beradigan rang-barang chiroqlar, daraxtlar bilan o‘ralgan atrof-muhit dillarni yayratadi. Yoshlar istirohat bog‘i chinakam ma’naviyat va ma’rifat maydoniga aylangan. Bog‘da olis o‘tmishdan boshlab bugungacha daxldor bo‘lgan, milliy madaniyatimiz taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning siymolari va betakror hikmatlari zamonaviy me’moriy yechimlar va bezaklar orqali tarixiy-xronologik tarzda joylashtirilgan. Ularning har biri siymosida o‘z ulug‘vorligi, mahobati va millat taraqqiyoti bilan bog‘liq betakror madaniyatimizga daxldorlik yaqqol ko‘rinib turadi. Maydonda barpo qilingan 2000 o‘rinli amfiteatr Yoshlar istirohat bog‘ining fayzli go‘shasidir. Bu yerda zamonaviy ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibotining namunali ko‘rinishini ko‘rdik. Butun maydonda faun, baland ruh va ko‘tarinki kayfiyat yaqqol seziladi. 500 dan ortiq tomoshabin yig‘ilgan ushbu amfiteatrd Tashkentdan borgan taniqli san’atkorlar va mahalliy namoyandalar ishtirokida katta bayram bo‘lib o‘tdi. Qo‘ng‘irot tumani aholisi, xususan, yoshlarining nigohida “Mustaqillik to‘yi”ning asl mazmunini ko‘rish mumkin edi.

Qo‘ng‘irotidagi eng zamonaviy me’moriy yechimlarga ega, fayzli tadbirlar zali mahobati va ko‘rki bilan alohida ajralib turadi. Zalni to‘ldirib o‘tirgan 600 dan ortiq ayollar, onalar, qizlar jamlangan anjumanda so‘z ona va Vatan haqida bordi. Zotan, ona — hayotning ibtidosi,

ko‘rsatgan artist Dariboy Xo‘jabergenovning chiqishi ko‘pchilikning quvonchiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Eliza va Dariboyning akademik janr — opera yo‘nalishidagi chiqishlari alohida jo‘shqinlik va bayramona ruh baxsh etdi.

“Ezgulik karvoni” loyihasi doirasida Qonliko‘l, To‘rtko‘l, Kegeyli, Beruniy, Ellikqal’ tumanlarida va Nukus shahrida nuroniylar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar olindi. Ular bilan

samimiy suhbatlar o‘tkazildi. Amaliy ko‘mak va bayram sovg‘alari yetkazildi. Ana shu tashriflar doirasida 150 dan ortiq xonadonga borildi. Sovg‘a-salomlar, ijtimoiy yordamlar ko‘rsatildi. Eng muhimi, insoniy mehr umummilliy daxldorlik, hamdardlik va mehr-muhabbat namoyishiga aylandi. “Siz hamisha e’tiborimizdasiz, siz yolg‘iz emassiz” degan sof umummilliy tuyg‘u, insoniy mehr ustuvorlik qildi.

“Mustaqillik to‘yi” festivalining mazmuni keng, shakl va usullari rang-barang bo‘ldi. Beruniy tumanida “Milliy liboslar fleshmobi” o‘tkazildi. Unda 500 dan ziyod ishtirokchining zamonaviy, ixcham, ayni paytda g‘oyat milliy kiyinish an‘analarga mos keladigan liboslardagi chiqishlari o‘zining bichimi, milliyligi va qadriyatlarimizga mosligi bilan alohida ajralib turdi. Ulardan har birining chiqishi alohida olqishlar bilan kutib olindi.

Qora’zakda “Kitob karvoni” aksiyasi tashkil etildi. Unda 500 dan ortiq kishi, xususan, yoshlar ishtirok etdi. Kitobxonlik, ma’rifat hayotimiz mazmuniga aylanayotgani yana bir bor e’tirof etildi. Har qanday buzg‘unchi g‘oyalardan, chaqirqlar va da’vatlardan asrovchi qudratli vosita ma’rifat ekan, yuksak



ma’naviyat va axloq hayotiy ehtiyoj ekan yana bir bor tasdiqlandi. Albatta, bu ikki tadbir shakli, tashkiliy jihatlar va ko‘rinishi bilan bir-biridan farq qiladi. Biri milliy liboslar, estetik did, kiyinish madaniyati, yurish-turish odobiga doir. Ikkinchisi esa kitob va kitobxonlik, tafakkur va aql ustunligi, ma’rifat va ma’naviyat zarurati bilan bog‘liq tadbirdir. Ammo ulami bitta mohiyat, bitta mazmun birlashtirib turdi. O‘z

qadriyatlarini asray bilgan, milliy xususiyatlarini yo‘qotmagan millat kelajagini asray olishi muqarrar. Ma’rifat, tafakkur, bilim — yangidan-yangi tashabbuslar, betakror g‘oyalar, taraqqiyotning yangi bosqichiga asos bo‘ladigan loyihalar sarchashmasi. Demak, milliy kiyim va matoda ham, kitoblar va ularning sahifalarida ham millatning qadimiy va boy xotirasi, keng dunyoqarashi, ma’nan sog‘lom, ma’rifiy jihatdan yuksak va barkamol qiyofasi mujassam. Qoraqalpog‘istondagi tadbirlar ana shu ulug‘ g‘oyaga asoslandi.

Keng miqyosli festival dasturida yoshlar mavzusi alohida e’tiborga olindi. Zotan, yoshlar — otalar ishinining davomchisi. Bugun biz barpo etayotgan yangi O‘zbekiston, biz qurayotgan Uchinchi Renessans poydevori kimning qo‘lida qoladi? Keyingi avlod bu ezu maqsadlarimizni, buyuk ideallarimizni davom ettirib, ro‘yobga chiqara oladimi? Qalqib turgan dunyoda, yangi dunyo tartibotini vujudga keltirish, dunyoga egalik qilish istagi kuchayib borayotgan bir paytda Markaziy Osiyoning, jumladan, O‘zbekistonning birligini, daxlsizligini asray oladimi? Albatta, har qanday ota o‘z oilasi va uning kelajagi haqida fikr yuritir ekan, shodiyonaga to‘la to‘y zavqu shavqi bilan birga farzandlarining taqdirini ham o‘ylaydi. Ana shu o‘y yoshlar bilan muloqot jarayonida biz — katta avlodda ham sezildi.

Yoshlar bilan ishlash, ularning ichiga kirish, qalb kechinmalari va orzu-istaklariga sherik bo‘lish maqsadida qator tadbirlar o‘tkazildi. “Shijoat” loyihasi doirasida harbiy xizmatchilar huzurida bo‘ldik. Harbiy bilim yurti kursantlari bilan uchrashdik. Harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari, farzandlari bilan suhbatlashdik. Nukus shahridagi Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugda 650 dan ortiq kursant, harbiy xizmatchi, ularning oilasi va farzandlari ishtirok etdi. Vatan himoyasi, harbiy xizmatning sharafi va mas’uliyati haqida fikrlashdik. Chin ma’noda, harbiy xizmatchilar hayot rohat-farog‘atini, shaxsiy erki va ozodligini aql bilan Vatan himoyachisidek sharafli va g‘oyat mashaqqatli, sutkaning xohlagan paytidagi har qanday javgavor topshiriq majburiyatiga almashirgan. Buning uchun odamga katta shijoat, fidoyilik, Vatan va millat taqdiri uchun javobgarlik hissi kerak. Harbiylar ana shunday el ardog‘idagi odamlar. Chunki Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik, zarur paytda Vatan uchun fidoyilik qalbda tug‘iladi va shakllanadi. Kasbiy mahorat va sohaning o‘ziga xos jihatlarini faqat maxsus ta’lim va tajriba orqali o‘zlashtirish mumkin. Qalb da’vati va shijoati esa har narsadan ustun. Biz harbiy xizmatchilar va kursantlar bilan uchrashuvda bunga yana bir bor guvoh bo‘ldik.

Bolalar — millatning navnihollari. Ko‘p millatli xonadonimizning zavq-u shavqi, orzu-umidi, istiqbol chechaklari. “Yangi O‘zbekistonning baxtiyor bolalari” tadbirlari festivalning eng samimiy va quvnoq tadbirlaridan biriga aylandi. Taxiatos tumanidagi “Aydin jo!” oromgohida dam olayotgan bolalar bilan uchrashuv mazmunli bo‘ldi. Dam olayotgan bolalarning badiiy chiqishlari baxtiyorlik, kelajak orzusi ifodasi bo‘ldi. Bu yerda she’rlar, qo‘shiqlar aytili. Ularga maxsus badiiy kitoblar va esdalik sovg‘alar topshirildi. Bolalarning quvonchi — har qanday bayramning fayzidir. Safarimiz davomida 350 dan ortiq bayram sovg‘alari, kitoblar va o‘quv qurollari to‘plami sovg‘a qilindi.

Festival doirasidagi gala-konsertlar to‘plangan ko‘p sonli tomoshabinlarning umumiy bayramiga aylandi. Tomoshabinlar san’atkorlarga jo‘r bo‘ldi. Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Beruniy, To‘rtko‘l tumanlari va Nukus shahrida o‘tkazilgan konsert dasturlarida minglab tomoshabinlar ishtirok etdi. Xususan, Nukusdagi gala-konsert safarimizning yakuniy namoyishiga aylandi. Gala-konsertni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi Amanbay Orinbayev tabrik so‘zi bilan ochdi. Tadbir bayramona ruhda, haqiqiy xalqona to‘y, ommaviy sayil maqomida o‘tkazildi. Poytaxtdan borgan el suygan san’atkorlar bilan birga mahalliy qo‘shiqchilar jirosidagi ushbu shodiyona ommaviy tus oldi. Nukus shahridagi katta amfiteatrd 2000 dan ortiq tomoshabin to‘plandi. Kuy-qo‘shiqlar, raqslar, sahna ko‘rinishlari, badiiy kompozitsiyalar bitta mazmunga va mavzuga qaratilgan edi. Odamlar qalbida bayram kayfiyati uyg‘onishi bilan birga hayotidan minnatdorlik va umiddan ozilik tuyg‘usi sezilib turardi. Vatanga muhabbat, ruqing taqdiriga daxldorlik hamda turli millatlarning yagona yurti bo‘lgan O‘zbekistonning buyuk kelajagi oldidagi majburiyat hissi yaqqol namoyon bo‘ldi.

“Mustaqillik to‘yi” davom etmoqda. Xalqimizning udumiga ko‘ra, to‘yga qadar tayyorgarlik yumushlari bilan birga to‘y kayfiyati va shodiyona qalbingizda jo‘sh uradi. To‘y zavq-shavqi bilan yashaysiz. Ayni paytda butun O‘zbekiston xalqi ana shunday ruh va kayfiyat bilan yashamoqda. Biz esa Qoraqalpog‘istonda qardoshlikning, qondoshlikning, jondoshlikning va kelajak oldidagi majburiyatning yangi, ohori to‘kilman jo‘shqin tuyg‘ulari bilan qaytdik. Bayram har galgidan ham mazmunli, har galgidan ham quvonchli o‘tishi shubhasiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo’limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatidan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cafr: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeks — 236. Buyurtma — G-846.
29305 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy